IJODKORNING INTELLEKTUAL, ESTETIK VA KASBIY KAMOLOTIDA - IQTIDOR, QOBILIYAT, TA'LIMNING O'RNI

https://doi.org/10.70728/orien.v07.i02.058

Xasanova Nargiza Sagdullaevna
nargiss1981@mail.ru
K.Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti

Annotatsiya: Maqolada badiiy iqtidor, badiiy qobiliyat, badiiy ta'lim va ijodkor mahorati tushunchalari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Ijodkor shaxs kamoloti jarayonida tug'ma iqtidor va kasbiy ta'limning o'zaro uyg'unligi asoslab beriladi. Shuningdek, zamonaviy badiiy ta'lim tizimida ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning dolzarb masalalari yoritiladi.

Kalit so'zlar: badiiy iqtidor, badiiy qobiliyat, badiiy ta'lim, ijodkor mahorati, ijodiy faoliyat, estetik tafakkur

THE PLACE OF TALENT, ABILITY, EDUCATION IN THE INTELLECTUAL, AESTHETIC AND PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF A CREATOR

Khasanova Nargiza Sagdullaevna
nargiss1981@mail.ru
National Institute of Art and Design named after K.Behzod

Abstract: This article analyzes the concepts of artistic talent, artistic ability, art education, and creative skills from a scientific and theoretical perspective. It explores the interaction between innate talent and professional education in the development of creative individuals. It also highlights current issues in the development of creative skills in the modern art education system.

Keywords: artistic talent, artistic ability, art education, creative skills, creative activity, aesthetic thinking

Zamonaviy jamiyatda san'at va madaniyat taraqqiyoti ijodkor shaxsning intellektual, estetik va kasbiy kamoloti bilan chambarchas bog'liq. Xususan, san'atshunoslik, estetika va badiiy ta'lim nazariyasining dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu ma'noda badiiy iqtidor, badiiy qobiliyat va ijodkor mahoratini ilmiy asosda o'rganish badiiy ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda global madaniy jarayonlar, axborot texnologiyalarining

(cc) BY

rivoji va ijodiy raqobatning kuchayishi ijodkor tayyorlash masalasiga yangi talablar qo‘ymoqda.

Ijodkor shaxs kamoloti ko‘p omilli jarayon bo‘lib, unda iqtidor va qobiliyatning tabiiy asoslari, ta’lim-tarbiya tizimi hamda ijtimoiy-madaniy muhit o‘zaro uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. L.S.Vigotskiy ta’limotida ta’kidlanganidek, ijodiy faoliyat shaxsning ichki imkoniyatlari bilan tashqi madaniy muhit o‘rtasidagi dinamik munosabatlar natijasidir. Shu ma’noda, ijodkorning intellektual rivojlanishi uning bilimlar tizimi, tahlil qilish qobiliyati va badiiy tafakkur darajasi bilan belgilansa, estetik kamoloti san’at asarini idrok etish, baholash va qayta yaratish layoqatida namoyon bo‘ladi.

San’atshunoslik nazariyasida estetik ong va badiiy tafakkur masalalari M.S.Kagan, D.S.Lixachyov, Yu.M.Lotman kabi olimlarning tadqiqotlarida chuqur tahlil qilingan. Ular ijodkor shaxsning shakllanishida san’atni idrok etish madaniyati, estetik tajriba va ma’naviy qadriyatlarni o‘zlashtirish muhim o‘rin tutishini ta’kidlaydilar. Estetik Kamolot ijodkorning faqat hissiy dunyosiga emas, balki uning intellektual faoliyatiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi, natijada badiiy obraz yaratish jarayonida yuqori darajadagi umumlashtirish va ramziy tafakkur shakllanadi.

Iqtidor va qobiliyat muammosi ijod psixologiyasi va san’at pedagogikasining markaziy masalalaridan biri hisoblanadi. J.Gilford, G.Gardner, Ya.A.Ponomaryov kabi olimlar tadqiqotlarida ijodiy qobiliyatlar ko‘p qirrali intellektual struktura sifatida talqin qilinib, ularning rivojlanishi maqsadli ta’lim va badiiy muhit orqali ta’minlanishi asoslab berilgan. Ayniqsa, badiiy ta’lim jarayonida iqtidorni erta aniqlash, uni rivojlantirish va kasbiy yo‘naltirish ijodkor shaxs kamoloti uchun hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Kasbiy kamolot esa ijodkorning estetik va intellektual rivojlanishiga tayangan holda, uning muayyan san’at turida yetuk mutaxassis sifatida shakllanishini ifodalaydi. Bu jarayonda badiiy ta’lim mazmuni, o‘qitish metodlari, ijodiy muhit va ustoz-shogird an’analari muhim ahamiyat kasb etadi. San’at ta’limi nafaqat texnik ko‘nikmalarni, balki mustaqil fikrlash, estetik baholash va ijodiy qaror qabul qilish qobiliyatlarini ham shakllantiradi.

Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolada ijodkor shaxs kamolotiga ta’sir etuvchi iqtidor, qobiliyat va ta’lim omillarining o‘zaro bog‘liqligi san’atshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Maqolaning maqsadi - ijodkorning intellektual, estetik va kasbiy kamolotida ta’limning hal qiluvchi o‘rnini nazariy jihatdan asoslash hamda badiiy ta’lim tizimini takomillashtirish uchun ilmiy xulosalar ishlab chiqishdan iborat.

Bo‘lajak rassom uchun professional mahorat ko‘nikmalarini egallash badiiy ta’lim oldiga qo‘yilgan talablarning asosiysi, ammo bu jarayonda iqtidorning ahamiyati beqiyos. Badiiy ta’limda professional faoliyat bilan shug‘ullanishdagi muvaffaqiyat, avvalo iqtidorni rivojlantirish bilan bog‘liqdir. Umuman, insoniyat

(cc) BY

o‘zining madaniy rivoji mobaynida hozirgi davr darajasiga erishuvi qobiliyat, iqtidor, iste’dod, talant darajasidagi sifatlarining natijasidir.

Hozirga qadar qobiliyat haqida turlicha fikrlar mavjud. Manbalarda qobiliyat tug‘ma xarakterga ega ekanligi qayd etilgan. Ularda tug‘ma matematik qobiliyat, tug‘ma musiqaviy qobiliyat singari e’tiroflar mavjud ekanligi ta’kidlanadi. Ammo har qanday yorqin iqtidor faqatgina, muntazam mashg‘ulotlar - o‘qish va amaliy ish jarayonida qobiliyatga aylanadi. Ya’ni, iqtidor bu asosiy xislat, uningsiz qobiliyat bo‘lishini tasavvur etish mumkin emas. Qobiliyat esa o‘z o‘rnida shunga mos, shart-sharoitlar mavjud bo‘lgan ta’lim mobaynida shakllanadi.

San’at ta’limida professional faoliyat bilan shug‘ullanishdagi muvaffaqqiyat, avvalo iqtidorni rivojlantirish bilan chambarchas bog‘liqdir, bu borada qadimdan: “faylasuflar odatda, muhokamaga, san’atkor uchun qanday xislat ahamiyatli - talantmi yoki ta’lim, savolini olg‘a suradilar. Antik davr faylasuflaridan biri Alkidam ushbu savolni qo‘yar ekan, qaysi biri muhimroq ekanligi haqida o‘z fikrini bayon etmaydi. Zamondoshi Isokrat esa talant ahamiyatli ekanligini ta’kidlagan holda, uni muntazam mashqlar vositasida rivojlantirish zarurligini aytib o‘tadi. San’at va ta’lim muammosi haqida Protogor san’atda talant ta’limsiz hech narsa emas, der ekan, ta’lim ham san’atsiz besamar ekanligini aytadi. Har bir qo‘yilgan savol o‘z o‘rnida dolzarb. Ammo, Demokritning aytishicha hech bir san’at va hech qanday fanni ta’limsiz egallab bo‘lmaydi”[1].

O‘z o‘rnida iqtidorning qobiliyat darajasida rivojlanishi uchun ham yetarli shart-sharoitlar talab etiladi. Qobiliyat - shaxsning individual xususiyati, faoliyat doirasida, masalan - san’at usullarini egallash tezligi, teranligi va mustahkamligi; iste’dod, esa - nihoyatda zo‘r qobiliyat, biror sohada erishiladigan yuksak darajadagi layoqat. Ko‘plab lug‘atlarda “iqtidor”ni ta’riflashda chalkashliklar mavjud. Masalan, iqtidorga iste’dod sifati beriladi. Shunga qaramay ba’zi ilmiy tadqiqot ishlarida lug‘atlardagi aytilinganlarga tayaniladi va turlicha hulosalar qilinadi, vaholanki iqtidor, ya’ni qodirlik mazmunan qo‘ldan kelish ma’nosini anglatadi. Badiiy ijodda iqtidordan layoqat, ya’ni qobiliyat shakllanadi va o‘z navbatida san’atkor o‘z ustidagi ishlash jarayonida iste’dod darajasiga yuksaladi. San’atkor - rassom yoki ijrochi (musiqada) ongi va qo‘lining ijodga moslashuvi oqibatidagi erishiladigan yutuqlari san’atda erishiladigan mahorati garoviga aylanadi. Mahorat esa tinmay bajariladigan mehnat, muntazam ijodiy jarayon, qo‘lning ong bilan hamohang faoliyati mobaynida, masalan, asar shakli yoki musiqada ijro mukammal bo‘lmog‘ini ta’minlaydi. Shu bilan bir qatorda nasldan naslga o‘tadigan mahoratning murakkab ko‘nikmalari genlar darajasida paydo bo‘lishiga ham e’tibor qaratiladi.

Shubhasiz, har qanday inson uchun uning ijodiy faoliyatida albatta tabiiy, ya’ni Aristotel iborasi bilan aytganda “tug‘ma” iqtidorning ahamiyati beqiyos: shuni aytish

[1] Татаркевич В. Античная эстетика, - М.: Искусство, 1977. - с. 90.

(cc) BY

kerakki, ilmiy adabiyotlarda - qobiliyat bu asab tizimi va miya strukturasi xususiyatlari bilan bog‘liq deyiladi. Ushbu xususiyatlar qaysi bir faoliyat turi bo‘lmasin, mavjud iqtidor kelgusida qobiliyatning rivojiga olib keladi. Qobiliyat bu psixologlarning fikricha iqtidorning insondagi anatomo-fiziologik va yanada aniqroq psixo-fiziologik xususiyatlari va ayniqsa, insonning biror faoliyat doirasi ibtidosida paydo bo‘ladigan afzalligiga aytiladi[2]. Inson biror faoliyat turi bilan shug‘ullanar ekan, unga shu yo‘nalishga doir iqtidor zarur bo‘ladi. Rassom uchun ko‘rish analizatori xususiyatlari (proportsiyalarini aniqlay bilish, rangni ko‘rish va hokazo) va ko‘z xotirasi rivojlangan bo‘lishi talab etiladi.

Ammo biror insonda iqtidorni bo‘lishi o‘z-o‘zidan qobiliyatga aylanadi, deyish ham noo‘rin bo‘lar edi. Bu haqida yirik olim T. Mahmudov: “Badiiy talant shaxsiylikka asoslanadi. Har bir rassom - o‘zicha bir dunyo, nihoyasiz va takrorlanmas. Talantning darajasi, rassomning o‘ziga xos ko‘z qarashi, individualligi, dunyoni xis etish sifatlari shakllanganligi bilan belgilanadi. O‘z navbatida rassomning individualligi bu badiiy qobiliyat komponentlarining o‘ziga xos moslashuvi bilan bog‘liq”[3]. Umuman olganda, insoniyat o‘zining har qanday sohada asrlar osha madaniy rivoji mobaynida hozirgi darajasiga erishuvi, undagi - iqtidor, qobiliyat, iste’dod, talant darajasidagi sifatlarining samarasi. Hozirgi ma’noda talant iste’dodning yuqori pog‘onasi ma’nosini bildiradi: “Badiiy talant - inson psixikasining xaddan tashqari murakkab, tizimi jihatidan shaxsiy bo‘lgan, sintetik tarzda moslashgan xislati mujassamligidir. Badiiy talantning asosiy komponentlari bu - obrazli tafakkur, ijodiy tasavvur, emosional xotira, xis eta bilish o‘tkirligi, maqsadga yo‘naltirilgan tasviriy anglay olish, intuisiya - barchasi o‘zaro bog‘liq holda, aniq dunyoqarash doirasida bog‘lanadi. Bu badiiy talantning asosiy strukturaviy elementlari bo‘lib, nafaqat, turlicha ko‘rinishda yozuvchilar, rangtasvir ustalari va muzikantlar va xokazo ko‘rinishga ega bo‘ladi. Balki, uning sifat va nisbatlari - har bir individium o‘ziga xos bo‘lgan shaxsiyati, xarakteri bilan tig‘iz holda bo‘ladi. Xuddi shu ma’noda talantning tabiat tomonidan in’om etilgan tabiiy vositalarni ham inkor etish mumkin emas. Albatta ular qandaydir mavhum, mutloq tarixiylikdan yiroq bo‘lmaydi. Qaysi birisi inson vujudi bilan qabul qilinadi, qaysi biri murakkab yo‘llar bilan avloddan avlodga meros sifatida o‘tadi va shu bilan bir qatorda, uzoq muddatdagi tarixiy rivoj natijasi sifatida baholanadi”[4].

Demak, har qanday yorqin iqtidor faqatgina, muntazam mashg‘ulotlar, o‘qish va amaliy ish jarayonida qobiliyatga aylanadi. Ya’ni, iqtidor bu asosiy xislat, uningsiz qobiliyat paydo bo‘lishini tasavvur etish mumkin emas. Qobiliyat o‘z o‘rnida shunga muvofiq shart-sharoitlarda shakllanadi: “Ma’lumki, insonlar biron - bir aniq faoliyat

[2] Кузин В.С. Психология. - М.: Высшая школа. 1974. - с. 259.

[3] Махмудов Т. Художественный талант и общество.сб. «Советское искусствознание».76.2.- М.:Сов.Художник.,1977.-с.22.

[4] Махмудов Т. Художественный талант и общество.сб. «Советское искусствознание».76.2.- М.: Сов.Художник.,1977.-с.22.

(cc) BY

turiga xos bo‘lgan qobiliyatga ega. Shaxsiy qobiliyatning o‘ziga xosligi iqtidor rivoji bilan chambarchas bog‘liq va shunda u qobiliyatning individual xosligi xodisasiga binoan oliy nerv faoliyatining insonlarga xos tiplari darajasida rivojlanishiga erishiladi” - deb yozadi I.P.Pavlov va bunday tiplarni uch turga ajratadi:

1. Badiiy tafakkur;
2. Fikrlovchi (matematik) tafakkur;
3. O‘rta tafakkur[5].

Bu aniqlagich, psixologiyada “signal tizimlari” nomi bilan ataladi. Ya’ni, har qanday inson qobiliyatining o‘ziga xosligi ushbu tiplar biri bilan bog‘liq bo‘lib, san’atkor yoki olim faoliyatida erishiladigan natijalar samarali darajasini kafolatlaydi.

Shu bilan bir qatorda, insoniyat tafakkur tizimida turlilikning Nodir xodisalaridan hisoblanadigan qirralari ham mavjud bo‘lib, qaysi bir insonlarda har ikki xislat ya’ni, birdaniga, badiiy tafakkur bilan fikrlovchi (matematik) tafakkur xislatlari mujassam bo‘lganlari ham uchraydi, demak ikki tafakkur xislati bir insonda mavjud bo‘ladi[6]. Ibn Sino (medisina va she’riyat), Leonardo da Vinchi (badiiy ijodiyot va matematika), Albrext Dyurer (badiiy ijodiyot va geometriya) singari shaxslarda har ikki signal tizimi birday rivojlangani ma’lum. Bu to‘g‘rida Nobel mukofoti laureati Konrad Lorents tirik mavjudot uchun aqliy yetuklik ham, go‘zallik ham noyob xislat bo‘lib, ularning har ikkisi bir mavjudotda barobar kelishi undanda Nodir hodisa[7] - deydi.

Har qanday jamiyat san’atining darajasi, shu sohaga xos ta’lim rivojining ko‘rsatkichi bo‘lib, buni ayniqsa badiiy ta’limda kuzatish mumkin: “Demokritning aytishicha hech bir san’at va hech qanday fanni ta’limsiz egallab bo‘lmaydi”[8]. Chunki har bir maktab u yoki bu yo‘nalishda faoliyat yuritadi va shu yo‘nalishga muvofiq tarzda san’atkorlik professionalizmini shakllantiradi. Ta’lim maqsadlarining aniq va ravshanligi shakllangan an’analar davomiyligini belgilab beradi. Badiiy ta’limda san’atkor mahoratini shakllantirish maqsadi uzviylik doirasida ijodkorlik xislatlarini singdirishni ham o‘z ichiga oladi. Badiiy qobiliyat badiiy faoliyat doirasisiz shakllanmaydi.

Maqsadli, erta yoshlikdan biror-bir sohaga iqtidor aniqlanib yo‘naltirilgan ta’limgina ta’lim samarasi yuqori darajasini kafolatlaydi. Tasviriy san’at sohasidagi akademik badiiy ta’limda mahoratli san’at ustasini tayyorlash maqsadi nafaqat uzluksiz ta’lim tizimi modeliga rioya qilish balki, soha doirasida ham iqtidorni shakllantirishni taqozo etadi: “ma’lumki, iqtidor biror faoliyat doirasida shug‘ullanganda o‘ziga xos shart-sharoitlar doirasida qobiliyat sifatida shakllanadi. Mashg‘ulotlar uchun yaratilgan shart-sharoitlarning soha ta’limiga muvofiqligi doirasida masalan, musiqiy yoki rangtasvirda (shu bilan bir qatorda - o‘quvchida

[5] Кузин В.С. Психология.- М.: Высшая школа, 1974, - с.259.
[6] Краткий психологический словарь. - М.: Полит.лит.,1985.-с.319.
[7] Лоренц К. Научно популярная серия. - М.: Наука,1971. - с. 9.
[8] Татаркевич В. Античная эстетика, - М.: Искусство, 1977. - с. 90.

(cc) BY

hoxish - istak mavjudligi, o‘qituvchining mahorati, mashg‘ulotlar uchun zarur bo‘lgan psixologik muhit, shunga muvofiq zaruriy shart-sharoitlar va hokazo) mavjud bo‘lgandagina ta’lim samarasi sifatida iqtidorning qobiliyat darajasida rivojlanishi jarayonlari muvaffaqqiyatli yakunlanadi. Insonning san’at bilan shug‘ullanish imkoniyatlari qanchalik keng va shu mashg‘ulotlar uchun shart-sharoitlar hamda ta’lim uzviyligi mavjud bo‘lgan taqdirda badiiy iqtidor shunchalik yorqin shakllanadi va talant darajasiga ko‘tariladi”[9]. Badiiy ta’limda san’atkor mahoratini shakllantirish maqsadi uzviylik doirasida ijodkorlik xislatlarini singdirishni ham o‘z ichiga oladi. Badiiy qobiliyat badiiy faoliyat doirasisiz shakllanmaydi. Shart-sharoitlar muvofiqligi va ta’limdagi uzluksizlik doirasi yetarli darajada manfaatli bo‘lgan taqdirda qobiliyat o‘zining yuqori darajasiga ko‘tariladi va shakllangan talant sifatida ifodasini topadi.

Shaxsning psixologik o‘ziga xosligi, qobiliyatdagi mukammallik ma’nosida, individual xarakterliligi bilan ajralib turadi. Iqtidorning bilimlar vositasida insondagi ko‘nikmalari rivojiga bog‘liq holda, erishilgan yutuklari, ya’ni har qanday qobiliyatning shakllanishi bilim va ko‘nikmalar mukammalligiga erishilgandagina natija bera boshlaydi. Shu ma’noda kobiliyat bilim va ko‘nikmalarni egallash osonlik bilan kechishiga yordam beradi. Yuqorida aytilganidek qobiliyat maxsus ta’lim mobaynida rivojlanadi, u jarayonda maxsus bilimlarni egallaydi deyilishidan maqsad qobiliyat qancha tez aniqlansa, rivojlanish imkoniyatlari ham shunchalik samarali bo‘ladi, shuni aytish kerakki qobiliyat - bu tug‘ma iqtidor, egallangan va mahoratning bilimlar mujassamligi sifatidagi xislatdir.

Olib borilgan nazariy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ijodkor shaxsning intellektual, estetik va kasbiy kamoloti o‘zaro uzviy bog‘liq va bir-birini to‘ldiruvchi jarayonlar hisoblanadi. Iqtidor va qobiliyat ijodiy faoliyatning tabiiy asosi sifatida namoyon bo‘lsa-da, ularning to‘laqonli rivojlanishi maqsadli va tizimli ta’lim jarayonisiz amalga oshmaydi. Shu bois ijodkor shaxs kamoloti tasodifiy emas, balki ijtimoiy-madaniy muhit va badiiy ta’lim tizimi bilan chambarchas bog‘liq jarayon sifatida qaralishi lozim.

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, intellektual kamolot ijodkorning badiiy tafakkuri, tahlil qilish va umumlashtirish qobiliyatlari bilan belgilanadi. Estetik Kamolot esa san’at asarini idrok etish, estetik baholash va badiiy obraz yaratish jarayonida namoyon bo‘lib, ijodkorning ma’naviy dunyosi va qadriyatlar tizimi bilan uzviy bog‘liqdir. Ushbu ikki omilning uyg‘unligi kasbiy kamolot uchun mustahkam asos yaratadi.

San’at ta’limi ijodkor shaxsni shakllantirishda hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. U nafaqat kasbiy ko‘nikma va malakalarni, balki mustaqil fikrlash, estetik ong va ijodiy mas’uliyatni ham rivojlantiradi. Ayniqsa, iqtidorni erta aniqlash, uni

[9] Челышева Т.В. Непрерывное художественное образование как целостная образовательная система: Дисс … на соис. уч. степени доктора педагогических наук. - Москва: 2003. - С.85-86.

(cc) BY

individual yondashuv asosida rivojlantirish hamda badiiy muhitni shakllantirish ijodkorning kelgusi kasbiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, ijodkorning intellektual, estetik va kasbiy kamoloti yagona tizim sifatida qaralib, unda iqtidor va qobiliyatning tabiiy imkoniyatlari ta’lim orqali maqsadli rivojlantirilishi lozim. Bu esa san’at ta’limi mazmunini takomillashtirish, nazariy va amaliy tayyorgarlikni uyg‘unlashtirish hamda ijodiy muhitni boyitish zarurligini taqozo etadi. Mazkur yondashuv ijodkor shaxsni har tomonlama kamol toptirish va milliy hamda jahon san’ati rivojiga munosib hissa qo‘sha oladigan yetuk mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Выготский Л. С. Воображение и творчество в детском возрасте. - М.: Педагогика, 1991. - 93 с.

2. Выготский Л. С. Психология искусства. - М.: Искусство, 1986. - 573 с.

3. Гарднер Г. Структура разума: теория множественного интеллекта. - М.: Вильямс, 2007. - 512 с.

4. Гилфорд Дж. Природа человеческого интеллекта. - М.: Прогресс, 1971. - 432 с.

5. Арнхейм Р. Искусство и визуальное восприятие. - М.: Архитектура-С, 2007. - 392 с.

6. Лотман Ю. М. Семиосфера. - СПб.: Искусство-СПБ, 2000. - 704 с.

7. Лихачёв Д. С. Эстетика культуры. - М.: Искусство, 1995. - 368 с.

8. Каган М. С. Морфология искусства. - Л.: Искусство, 1972. - 440 с.

9. Каган М. С. Философия культуры. - СПб.: Петрополис, 1996. - 416 с.

10. Бахтин М. М. Эстетика словесного творчества. - М.: Искусство, 1979. - 424 с.

11. Маслоу А. Мотивация и личность. - СПб.: Питер, 2019. - 352 с.

12. Роджерс К. Творчество как тенденция к самоактуализации // Вопросы психологии. - 1994. - № 1. - С. 55-65.

13. Пономарёв Я. А. Психология творчества. - М.: Наука, 1976. - 303 с.

14. Рубинштейн С. Л. Основы общей психологии. - СПб.: Питер, 2002. - 720 с.

15. Фромм Э. Искусство быть. - М.: АСТ, 2015. - 320 с.

16. Зязюн И. А. Эстетика педагогического действия. - М.: Просвещение, 1989. - 256 с.

17. Библер В. С. Мышление как творчество. - М.: Политиздат, 1975. - 399 с.

18. Кузин В. С. Психология художественного творчества. - М.: Академия, 2005. - 304 с.

(cc) BY

19. Хренов Н. А. Социальная психология искусства. - М.: Академический проект, 2006. - 384 с.

20. Соколов М. Н. Теория и история искусства. - М.: Высшая школа, 2009. - 415 с.

21. Усмонходжаев А. Эстетик тарбия назарияси. - Тошкент: Ўқитувчи, 2008. - 184 б.

22. Каримов Н. Санъат ва бадиий тафаккур масалалари. - Тошкент: Фан, 2015. - 256 б.

23. Жураев Р. Х. Ижодкор шахс ва бадиий таълим. - Тошкент: Мумтоз сўз, 2017. - 198 б.

24. Абдуллаев С. Бадиий таълим ва эстетик онг. - Тошкент: Санъат, 2020. - 224 б.

25. Xasanova N. San’at ta’limida ijodiy kompetensiyalarni shakllantirish// Санъат ва маданият. - 2022. - № 3. - Б. 45-52.

26. Татаркевич В. Античная эстетика. - М.: Искусство, 1977. - с. 190.

27. Кузин В.С. Психология. - М.: Высшая школа. 1974. - с. 259.

28. Махмудов Т. Художественный талант и общество.сб. «Советское искусствознание». - М.: Сов.Художник., 1977. - с. 122.

29. Краткий психологический словарь. - М.: Полит.лит., 1985. - с.319.

30. Лоренц К. Научно популярная серия. - М.: Наука, 1971. - с. 159.

31. Татаркевич В. Античная эстетика, - М.: Искусство, 1977. - с. 290.

32. Челышева Т.В. Непрерывное художественное образование как целостная образовательная система: Дисс … на соис. уч. степени доктора педагогических наук. - Москва: 2003. - С.85-86.

(cc) BY